

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.09.2020.K.82.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

URUNBAYEVA ZIROAT ERKINOVNA

**BIR QATOR ALMASHINGAN 3,4-DIGIDRO VA 1,2,3,4-
TETRAGIDROIZOXINOLINLARNING SINTEZI**

02.00.03-Organik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
chemical sciences**

Urunbayeva Ziroat Erkinovna

“Bir qator almashingan 3,4-digidro va 1,2,3,4-tetrahidroizoxinolinlarning
sintezi”..... 3

Урунбаева Зироат Эркиновна

Синтез ряда замещенных 3,4-дигидро и 1,2,3,4-
тетрагидроизохинолинов 23

Urunbayeva Ziroat Erkinovna

Synthesis of a series of substituted 3,4-dihydro and 1,2,3,4-
tetrahydroisoquinolines 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 47

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.09.2020.K.82.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

URUNBAYEVA ZIROAT ERKINOVNA

**BIR QATOR ALMASHINGAN 3,4-DIGIDRO VA 1,2,3,4-
TETRAGIDROIZOXINOLINLARNING SINTEZI**

02.00.03-Organik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/K484 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.cspi.uz.ilmiy kengash) hamda "ZiyoNET" axborot ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Vinogradova Valentina Ivanovna
kimyo fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Turgunov Erxon
kimyo fanlari doktori, professor
Jurakulov Sherzod Niyatkabulovich
kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil « 18 » 08 soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (+998) 70-716-68-05, faks (0370) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (381 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (+998) 70-716-68-05, faks (0370) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 30 » 07 kuni tarqatildi.
(2025 yil « 30 » 07 daqi 28 -raqamli restr bayonnomasi).



O.E. Ziyadullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

G.Q. Otamuxamedova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d.

A.G. Maxsumov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Hozirgi vaqtda jahonda zamonaviy organik va tibbiy kimyoning eng dolzarb hamda ustuvor vazifalaridan biri ko'p qirrali ta'sirga ega bo'lgan yangi samarali dori vositalarga bo'lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Tabiiy birikmalar ichida izoxinolin alkaloidlari va ularning sintetik analoglari asosida yangi dori vositalari ishlab chiqish yildan yilga ortib bormoqda, bu esa nozik organik sintez asosida yangi avlod organik moddalar olish, ularning qo'llanish sohasini keng ko'lamda o'rganishni taqozo qilmoqda. Jumladan yuqori faollikga ega bo'lgan izoxinolin hosilalarini sintez qilishning yangi usullarini topish, fizik-kimyoviy xususiyatlarini tadqiq qilish hamda maqsadli qo'llanish sohasini aniqlash dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa izoxinolin alkaloidlari va ularning hosilalari asosida yurak-qon tomir, xavfli o'smalar, yuqumli va virusli kasalliklarni davolash imkonini beruvchi bir qator dori vositalari ishlab chiqilgan va farmatsevtika sanoatida yuqori sifatli preparatlar sifatida foydalanish dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Dunyoda izoxinolin qatori alkaloidlarini organik kimyoning zamonaviy usullaridan foydalanib izoxinolinning yangi hosilalarini sintez qilish usullarini ishlab chiqish, ularning fizik-kimyoviy, farmakologik va biologik faolligini tadqiq etish, ularning antimikrob, antioksidant va boshqa farmakologik xususiyatlarini o'rganish, tarkibi va tuzilishini aniqlash, xususiy va kvant-kimyoviy tavsiflari, texnik shartlari va talablarini ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar bajarilmoqda. Bu boradagi izoxinolin hosilalarining bir qator almashingan 3,4-digidro va 1,2,3,4-tetragidroizoxinolinlarning sintez qilish usullari va ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish, ularning fizik-kimyoviy va mexanik xossalarini, kimyoviy o'zgarishlari va faolliklarini tadqiq qilish, ulardan yangi avlod antimikrob, antioksidant, sitotoksik va boshqa farmakologik xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda dunyo bozorini raqobatbardosh yangi turdagi izoxinolin birikmalarini kondensatlanish va sikllanish reaksiyalari asosida sintez qilish va biologik faolligini aniqlash bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, izoxinolin va ularning turli hosilalarini olishning muqobil usullarini aniqlash va ularni joriy etish bo'yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida¹ «Kimyo va gaz-kimyosi sohasini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash» hamda «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «mutlaqo yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish, shu asosda tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardosh mahalliy mahsulotlarni ishlab

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

chiqarishni ta'minlash»² ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada gomoveratrilamin va bir qator kislotalar asosida amidlar hamda izoxinolinlarning yangi hosilalarini sintez usullarini ishlab chiqish va tuzilishini tadqiq qilish, ularni identifikatsiyalash, texnik hamda texnologik parametrlarini ishlab chiqish va ulardan samarali biologik faol moddalarni yaratishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 fevraldagi PQ-4992-sonli «Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2018 yil 25 oktabrdagi PQ-3983-sonli «O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari ijrosini ta'minlashda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. Tibbiyot va farmakologiya, VII. Kimyo, kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda dunyoning barcha sanoati rivojlangan mamlakatlarda amidlar va izoxinolinlar sintezining yangi usullarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Xorijlik olimlar, xususan A.K. Goze, D.J. K. Konsteb, J.S. Keri, I. Indryus, L. Amarnat, R. Bandixor, J. de M. Munos, J. Fraga-Lyubrey karbon kislotalarini tegishli katalizatorlarsiz termik amidlash reaksiyalarini o'rganishgan. A. Xalafi-Nejat, X.J. Van, L. Perryo, E. Gelens, S.D. Jagtap, A. Leggio, Xyu Lunberg erituvchilarsiz muhitda mikroto'liqinli (MT) qizdirish orqali amidlarning to'g'ridan-to'g'ri sintezini amalga oshirishgan. Grisova L., R.D. Teylor, X. Yunkan, M. Lebyof, R. Tomar, S. Ruchirava, A. Nesh, A.B.Dj. Brakka, M.M. Xeravi, Yu. Xan, S. Doy, Kitson, S.L, Maykl Dj.E. Xyulins, R. Alonso, A.A. Axrem, Yu.V. Shklyayev, V.S. Shklyayev, V.G. Karsev, A.G. Mixaylovskiy izoxinolinning turli xil hosilalarini sintez qilish, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari va biologik faolligini o'rganish bilan shug'ullanmoqdalar.

Respublikamizda ham bu yo'nalishlarga S.Yu. Yunusov, M.S. Yunusov, V.I. Vinogradova, M. Alimova, T. Golodnyuk, N. Baratov, Sh.N. Jo'raqulov, A.Sh. Saidov, D.B. To'xtayevlar rivojlantirganlar. Ular o'z ilmiy izlanishlari bilan amid va izoxinolin hosilalari sintezi muammolarini hal qilish va ularning biologik faolligini aniqlashga salmoqli hissa qo'shganlar.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Shunga qaramasdan, amidlar va izoxinolinlarning olinishi va xossalari ko'p yillardan buyon o'rganib kelinayotgan bo'lsa-da, bu sohada hali ko'plab yechimini topmagan muammolar mavjud. Xususan, izoxinolin hosilalari va ularning oraliq mahsulotlari tuzilishining biologik faollikka ta'siri masalalari hanuzgacha to'liq hal etilmagan. Bundan tashqari, faol xromoforlar saqlagan bir qator amid va izoxinolin hosilalarini maqsadli sintez qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Shu sababli butun dunyoda yangi tetragidroizoxinolinlar va ularning hosilalarini sintez qilish, ularni modifikatsiyalash hamda «tuzilma – biologik faollik» o'zaro bog'liqligini aniqlash bo'yicha izchil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha: yuqori samarali birikmalarni maqsadli sintez qilish, samarali bir reaktorda olib boriladigan sintez usullaridan foydalanish, reaksiyalar mexanizmini o'rganish, moddalar biologik faolligini dasturiy ta'minotlar yordamida oldindan baholash. Bularning barchasi ularni xalq xo'jaligiga tadbiiq etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar rejasining "Biologik faol geterotsiklik birikmalarning analoglari sintezi va xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gomoveratrilamin va bir qator kislotalar asosida amidlar hamda izoxinolinlarning yangi hosilalarini sintez usullarini ishlab chiqish, ularning tuzilishini fizik-kimyoviy va biologik xossalari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mikroto'liqinli nurlanish sharoitida almashinuvchi aromatik karbon kislotalar asosida 1,2-digidroizoxinolinlarni ilk bor sintez qilishning optimal shartlarini ishlab chiqish va an'anaviy ko'p bosqichli usulni samarali bir bosqichli (one-pot) sintez yo'nalishiga aylantirish.

gomoveratrilamin va turli karbon kislotalar asosida yangi amidlar hamda izoxinolin hosilalarini sintez qilish jarayonlarini takomillashtirish, ularning reaksiyon yo'nalishlarini chuqur o'rganish va natijalarni o'zaro qiyosiy tahlil qilish.

itakon kislotaning gomoveratrilamin bilan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita amidlanish reaksiyalarini o'tkazib, hosil bo'ladigan oksopirrolidinkarboksiamidning shakllanish dinamikasini aniqlash.

oksopirrol halqasini saqlagan amidning halqalanish reaksiyasini amalga oshirib, tarkibida 1,2-digidroizoxinolin va pirroloizoxinolin fragmentlari mavjud bo'lgan yangi noyob tuzilishga ega birikmani sintez qilish hamda ushbu jarayon uchun ehtimoliy reaksiya mexanizmini asoslab berish.

sintez qilingan yangi izoxinolin hosilalarining sitotoksik faolligini o'rganish, ularning biologik ta'sir xususiyatlarini baholash va potensial farmakologik ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida gomoveratrilamin, alifatik va aromatik karbon kislotalar, ularning amidlash mahsulotlari va almashgan izoxinolinlar olingan.

Tadqiqotning predmetini gomoveratrilamin va kislotalardan maqsadli va yoʻldosh mahsulotlar olish sharoitlari hamda ularning fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlari tashkil etgan.

Tadqiqot usullari. Organik kimyoning eksperimental usullari, infraqizil, ^1H va ^{13}C yadro-magnit rezonans spektroskopiyasi (jumladan HMBC, COSY, NOESY), mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlil, xromatografiya (yupqa qatlam xromatografiyasi) va biologik tadqiqot usullari qoʻllanildi. Biologik faollikni dastlabki baholash uchun PASS dasturi qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor almashingan aromatik karbon kislotalar asosida 1,2-digidroizoxinolinlar sintezi mikrotoʻlqinli nurlanish sharoitida oʻtkazilib, jarayonda anʼanaviy koʻp bosqichli sintez yoʻlidan bir reaktorli (one-pot) usuli samarali ekanligi asoslangan;

gomoveratrilamin va bir qator karbon kislotalar asosida yangi amidlar hamda izoxinolin hosilalarini sintez qilish usullari maqbullashtirilgan;

itakon kislotaning gomoveratrilamin bilan toʻgʻridan-toʻgʻri va bilvosita amidlanish reaksiyalari amalga oshirilib, oksopirrolidinkarboksiamid hosil boʻlish dinamikasi aniqlangan;

oksopirrol halqasini saqlovchi amidning halqalanish reaksiyalari asosida 1,2-digidroizoxinolin va pirroloizoxinolin halqalarini oʻz ichiga olgan izoxinolinlar sintez qilingan va ularning xususiy kattaliklari aniqlangan, tozaligi xromatografik, tuzilishi spektroskopik, elektron tuzilishi kvant-kimyoviy usullarida isbotlangan;

sintez qilingan izoxinolin hosilalarining sitotoksik faolliklari oʻrganilgan va ularning biologik taʼsir xususiyatlari va potensial farmakologik faolligi yuqori ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

1-(fenil)-6,7-dimetoksi-3,4-digidroizoxinolin hosilalarini sintez qilishning samarali bir bosqichli usuli ishlab chiqilgan va amidlash bosqichsiz digidroizoxinolinning bir qator hosilalarini olish metodikasi ishlab chiqilgan;

aromatik toʻyingan, toʻyinmagan, alifatik toʻyingan, toʻyinmagan, gidroksi- va ikki asosli toʻyinmagan mono- va bis-amidlarni sintez qilishning preparativ usullari maqbullashtirilgan;

fosfor (V) xlor kislotasidan foydalanib itakon kislotasidan N-almashingan pirrolidin va diamid hamda bis-izoxinolin olish sharoitlari topilgan va ularning tuzilishi spektral xarakteristikalar asosida aniqlangan;

2-(6,7-dimetoksi-3,4-digidroizoxinolin-1-yl)-8,9-dimetoksi-5,6-digidro-pirrol-[2,1- α]-izoxinolin sitotoksik faolligi hamda ularning biologik taʼsiri va potensial farmakologik xossalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi infraqizil, ^1H va ^{13}C yadro-magnit rezonans spektroskopiyasi, mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili (RTT), birikmalarning tarkibi va tuzilishini aniqlash, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX), biologik va boshqa tadqiqot usullari maʼlumotlari asosida tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gomoveratrilamin va bir qator karbon kislotalar asosida amidlar hamda izoxinolinlarning yangi hosilalarini sintez qilish usullarini ishlab chiqilganligi, ularining tuzilishini IQ- va YaMR-spektroskopiyasi, mass hamda rentgen tuzilish tahlil usullari yordamida isbotlanganligi va sintez qilingan izoxinolinlar hosilalarining fiziologik faolliklarini baholanganligi bilan izohlanadi hamda geterotsiklik birikmalar kimyosini nazariy va amaliy ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati struktura-xossa o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdan foydalanib sintez qilinadigan moddalarning fiziologik faolligini baholash metodikasi ishlab chiqilganligi, izoxinolinlarning yangi hosilalarini sintez qilish metodikasi ishlab chiqilganligi va sintezning maqbul sharoitlarini aniqlanganligi, 2-(6,7-Dimetoksi-3,4-digidroizoxinolin-1-yl)-8,9-dimetoksi-5,6-digidropirrol-[2,1- α]-izoxinolin sitotoksik faolligining baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bir qator almashingan 3,4-digidro va 1,2,3,4-tetragidroizoxinolinlarning sintezi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

izoxinolinlarning yangi hosilalarini sintez qilish metodikasidan VA-FA-F-6-009 raqamli "Tabiiy birikmalar va ularning sintetik hosilalarining sitotoksik, antibakterial, zamburug'ga qarshi va antioksidant faolliklarini o'rganish" mavzusidagi amaliy loyihada izoxinolinlarning transformatsiyalanmagan normal teri hujayralari – fibroblastlarga nisbatan kam toksiklikka ega bo'lgan bachadon bo'yni saratoni (HeLa) va qizil o'ngach saratoni (HEp-2) hujayralari ingibitorini aniqlashda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar akademiyasining 2024-yil 7-oktyabrdagi 4/1255-2218-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, olingan moddalar orasidan bachadon bo'yni saratoni (HeLa) va qizil o'ngach saratoni (HEp-2) hujayralariga nisbatan ingibitorligini aniqlash imkonini bergan;

sintez qilingan 1- (1-xloretil) -6,7-dimetoksi-1,2,3,4-tetragidroizoxinolin, gomoveratrilaminning ratsemat sut kislotasi bilan kondensatlanish va sikllanish reaksiyasi natijasida olingan moddaning kimyoviy tuzilishi, rentgen tuzilish tahlili asosida aniqlangan va kristall strukturasi xalqaro Kembridj markazining struktur ma'lumotlar bazasiga kiritilgan (Cambridge Crystallographic Data Centre 2024 yil 3-dekabrda <https://www.ccdc.cam>, CCDC:800579 son ma'lumotnomasi). Natijada turli xil xossaga ega bo'lgan yangi moddalarni maqsadli sintez qilish imkoniyatini bergan;

sintez qilingan N,1-bis- (3,4-dimetoksifeniletil) -1-okspipirrolidin-3-karboksiamid va N- (3,4-dimetoksifeniletil) -3-yodbenzamidlardan "Samarqand-England Eco-Medical" MCHJda in vitro sharoitida antibakterial vosita sifatida foydalanilgan (Samarqand viloyati hokimligining 2024-yil 21-avgustdagi 07-07/139-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, patogen mikroorganizm Escherchia coli (gramm (-) bakteriya) ga nisbatan 90 mm li sinov maydonida faollikka ega

ekanligini aniqlangan va shu turdagi mikroorganizmlarni zararsizlantirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 17 ta, shundan 8 ta xalqaro va 9 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosida ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola respublika, 2 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti asoslab berilgan. Mavzuning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiyada olingan ilmiy ma'lumotlarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan. Erishilgan ishonchli natijalarga asoslanib, ularning amaliy qo'llanilishi keltirilgan, ushbu ish yuzasidan ilmiy nashrlar haqida ma'lumot berilgan.




Dissertatsiyaning "**Bir qator almashingan 3,4-digidro- va 1,2,3,4-tetragidroizoxinolinlarning sintezi**" nomli birinchi bobida gomoveratrilamindan mono- va di- karbon kislotalarining amidlarini hamda olingan amidlar asosida digidro- va tetragidroizoxinolinlarni sintez qilish usullari haqidagi adabiyot ma'lumotlari tahlili keltirilgan. Taqdim etilgan adabiyot ma'lumotlari asosida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari va dolzarbligi belgilangan.

Dissertatsiyaning "**Alifatik va aromatik amidlar hamda 3,4-digidro- va 1,2,3,4-tetragidroizoxinolinlar sintezi**" deb nomlangan ikkinchi bobi gomoveratrilamin va bir qator kislotalar hamda sintez qilingan amidlar asosida yangi digidro- va tetragidroizoxinolinlar hamda pirroloizoxinolin olishning muqobil usullarini tadqiq qilishning xususiy natijalari muhokamasiga bag'ishlangan.

Dissertatsiyaning "**Alifatik va aromatik amidlar hamda 3,4-digidro- va 1,2,3,4-tetragidroizoxinolinlarning sintezi**" deb nomlangan ikkinchi bobida gomoveratrilamin va bir qator alifatik hamda aromatik kislotalardan olingan amidlar asosida yangi digidro- va tetragidroizoxinolinlar, shuningdek pirroloizoxinolinlarni sintez qilinishi tadqiqotni natijalar muhokamasida keltirilgan.

Alifatik karbon kislotalar asosida amidlash reaksiyalari. Amidlar sintezida qo'llaniladigan an'anaviy usullardan biri bu termik amidlanish usulidir. Amidlanishning yangi usullari doimiy ravishda ishlab chiqilyotganiga qaramay, biz reaksiyani modifikatsiyalangan Bishler-Napiralskiy usuli asosida olib bordik.

Bunda modda aralashmasi o'rniga gomoveratrilamin va alifatik kislotalardan tayyorlangan tuz ishlatildi. Gomoveratrilamin — bu tabiiy birikma bo'lib, u *Desmodium tiliaefolium*, *Pachycereus pecten-aboriginum*, *Trichocereus peruvianus* kabi o'simliklardan ajratib olingan yoki sintetik yo'l bilan ham olingan.




Ritsinol (2), sut (3) va sorbin (4) kislotalari bilan reaksiyalarda maqsadli (5-7) Olingan tuz 180 °C haroratda 2 soat davomida qizdirildi (bir reaktorda – one-pot sharoitida), natijada mos keluvchi amidlar (5-7) sintez qilindi.

Gomoveratrilaminning ritsinol (2), sut (3) va sorbin (4) kislotalari bilan kondensatsiyalanish reaksiyalarida maqsadli amidlar (5-7) oson hosil bo'ldi. Mos ravishda qayta ishlov berilgandan so'ng, maqsadli birikmalar quyidagi unmlar bilan ajratib olindi: 5 – 86%, 6 – 82%, 7 – 70%.

Olingan amidlar (5-7) tuzilishi IQ- va ¹H YaMR-spektroskopiya usullari yordamida tasdiqlandi. IQ-spektrlarda quyidagi xarakterli yutilish chiziqlari kuzatildi: 3649, 3289 cm⁻¹ (NH), 3016, 2939, 2837 cm⁻¹ (C-H), 1656 cm⁻¹ (C=O), 1629, 1542, 1518 cm⁻¹ (Ar), 1465, 1337, 1261, 1232 cm⁻¹ (C-N), 3050-2919 cm⁻¹ (Ar-H).

¹H YaMR spektrida gomoveratrilaminning aromatik yadrosiga tegishli protonlarning quyidagi signallari qayd etildi: δ 6.70 (1H, d, J = 2.0, H-2), 6.72 (2H, dd, J = 7.9; 2.0, H-6), 6.79 (1H, d, J = 8.0, H-5), 7.17 (1H, dd, J = 15.0; 15.0, H-3').

N-(3,4-dimetoksifeniletill)-2-gidroksiopropanamid (7) ning tuzilishini aniqlash uchun mass-spektrometrik tahlil o'tkazildi. Quyidagi (7) birikmaning mass-spektrida m/z 254 [M]⁺ molekulyar ionining cho'qqisi eng yuqori (100%) intensivlikka ega. Molekulyar ionning parchalanishi bir necha yo'nalishda sodir bo'ladi: 1. Metoksil radikalining yo'qolishi [M-30]⁺; 2. Azotdagi o'rinbosarning ajralib chiqishi, natijasida m/z 181 barqaror ion hosil bo'lishi; 3. α-NH bog'ining uzilishidan esa m/z 165 va m/z 88 fragmentlarini hosil qiladi.



Amidlash reaksiyasida bir asosli kislotalar (2-4) bilan bir qatorda ikki asosli itakon kislota (8) dan ham foydalandik.


Ma'lumki, itakon kislota (8) qizdirish natijasida uning erish haroratidan yuqori haroratda sitrakon angidridga aylanishi mumkin, shuningdek, kislota (8) aminlar bilan reaksiyada N-almashgan pirrolidinlar hosil bo'lishiga olib keladi. Itakon kislota tuzini gomoveratrilamin bilan 1:2 nisbatda 2 soat davomida 180 °C haroratda qizdirilganda 2 ta amidlar aralashmasi (10), $R_f = 0,73$, unumi 87% va (11), $R_f = 0,71$, 10% unum bilan hosil bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, itakon kislotasining gomoveratrilamin bilan reaksiyasida ikkita karboksil guruhi va metilen bog'i hisobiga amidlanish mahsulotining ichki molekulyar siklikondensatsiyasi sodir bo'ladi.

1-jadval

Sintez qilingan alifatik amidlarning fizik-kimyoviy kattaliklari hamda ^1H YaMR spektral tahlil natijalari (kislota qoldig'i qismi)

Kislota №	Amid	Brutto formulasi	T. suv., °C	U num, %	YaMR ^1H (400 MGs, CDCl_3 , δ , m.u., J/Gs):
2	5	$\text{C}_{28}\text{H}_{47}\text{NO}_4$	88-90	86	0.80 (3H, t, J =7.0, H-17'), 1.17 (24H, m, 12 CH_2), 1.51 (2H, t, J =7.1, H-3'), 2.04 (2H, t, J-7.7, H-2')
3	6	$\text{C}_{16}\text{H}_{21}\text{NO}_3$	moysimon	82	1.81 (3H, d, J=6.0, H-6'), 5.49 (1H, m, NH), 5.65 (1H, d, J=15.0, H-2'), 6.08 (2H, m, H-4',5') 7.17(1H, dd, J=15.0, 15.0, H-3')
4	7	$\text{C}_{13}\text{H}_{19}\text{NO}_4$	70-71	70	1.34 (3H, d, J =6.7, H-3'), 4.10 (1H, keng s, OH), 4.17 (1H, kv, J=6.8 H-2'), 6.69 (2H, ustma-ust, H-2,6), 6.90 (1H, keng s, NH).
8	10	$\text{C}_{25}\text{H}_{32}\text{N}_2\text{O}_6$	87-88	87	2.58 (2H, m, Ha-2''), 2.96 (1H, m, J=7.7, H-3''), 3.33 (1H, t, J=9.4, H-4''), 3.56 (1H, dd, J=6.8, 9.6, H-4''), 6.25 (1H, s, NH)
9	11	$\text{C}_{16}\text{H}_{21}\text{NO}_3$	113-114	82	5.46 (1Ha, s, Ha-1''), 5.64 (1H, s, Hb-1''), 6.49 (1H, keng,s, NH), 6.56 (1H, keng, s, NH)

Natijada 87% unum bilan oksopirrolidinkarboksamid (**10**) hosil bo'ladi. Ikkinchi mahsulot - diamid (**11**) dastlabki itakon kislotasidan ikki mol suvni ajralib chishi natijasida hosil bo'ladi. Itakon kislotasi dixlorangidrididan foydalanib, 82% unum bilan diamid (**11**) olindi. Itakon kislotasi o'z izomerlariga (sitrakon va mezakon kislotalarga) nisbatan



faolroq, chunki, itakon kislotasi molekulasida qo'shbog' joylashgan. Kislotasi molekulasidagi qo'shbog' elektron juftlarining zichligi va uning qayta taqsimlanishi hisobiga amin ishtirokida siklik mahsulot hosil bo'lish ehtimoli ortadi. Reaksiyon aralashma 180 °C gacha qizdirilganda (**10**) qo'shbog'ning uzilishi hisobiga olinadi, (**11**) esa asosan xona haroratida itakon kislotasi dixlorangidridi ishtirokida hosil bo'ladi.



Olingan amidlar (**10**) va (**11**) tuzilishi IR- va ¹H YaMR-spektroskopiyasi usullari yordamida tasdiqlandi. IR-spektrlarda quyidagi 3649, 3334 sm⁻¹ (N-H), 3297 sm⁻¹ (N-H), 3059, 2999 sm⁻¹ (C-H), 2955, 2931 sm⁻¹, 1644 sm⁻¹ (NH-C=O guruhi), 1607 sm⁻¹ (Ar), 1536, 1518, 1264, 1235 sm⁻¹ (C-N) sohalarda xarakterli yutilish chiziqlari qayd etildi.

¹H YaMR spektrida (**10**) va (**11**) amidlar uchun β-feniletilamin qoldig'i protonlarining signallari quyidagi kimyoviy siljishlarda δ 2.68–2.78 m.d. (2H, triplet, J = 7.0, H-β), 3.42–3.51 m.d. (2H, kvartet, J = 6.7–7.0, H-α), 3.75–3.85 m.d. (OCH₃ guruhi), 6.67–6.74 m.d. (2H, H-2,6), 6.73–6.79 m.d. (1H, dublet, J = 8.6, H-5) rezonanslashgan. Qolgan protonlarning signallari esa hosil bo'lgan tuzilmaning xususiyatlariga mos kimyoviy siljish sohasida joylashgan (1-Jadval).

(**10**) birikmaning ¹H YaMR spektrida 6,25 m.u. sohada bitta NH guruhining signali mavjud bo'lib, =CH₂ guruhining signali yo'q. 2,6–3,6 m.u. soha oralig'ida oksopirrolidin halqasining 2"-metilen guruh protonlari (**10**) moddaning α- va β-protonlari bilan birga 2,58 m.u. da multiplet ko'rinishida namoyon bo'ladi. Metin protoni H-3" 2,96 m.u. da, 4"-metilen guruhining protonlari esa 3,33 m.u. (H-aks) va 3,56 m.u. (H-ekv) sohada rezonanslashgan.

Olingan barcha eksperimental ma'lumotlar (10) birikmasi uchun taklif etilgan N¹N⁴-bis(3,4-dimetoksifeniletil)-2-metilensuksinamid tuzilishini to'g'riligini tasdiqlaydi.

Gomoveratrilamining aromatik karbon kislotalari bilan reaksiyasi. Amidlar sintezining keng tarqalgan usullaridan biri termik amidlanishdir. Biz ham termik usulda ba'zi aromatik karbon kislotalarini (12-20) amidlash reaksiyalarini amalga oshirdik. (21-29) amidlar gomoveratrilamin (1) va aromatik karbon kislotalari tuzlarining (12-20) aralashmasini 178-180 °C haroratda qizdirish orqali sintez qilindi. Reaksiya 2-4 soat davomida olib borildi. Reaksiyaning borishi har 30



daqiqada yupqa qatlam xromatografiyasi (YuQX) yordamida nazorat qilindi. Reaksiyalar natijasida quyidagi amid mahsulotlari olindi. Olingan (21-29) amidlarning tuzilishi IQ, YaMR-spektrlari ma'lumotlari bilan tasdiqlangan. IQ-spektrlarda NH ($\approx 3260 \text{ cm}^{-1}$) va amid (N-C=O, $\approx 1650 \text{ cm}^{-1}$) karbonil guruhining o'ziga xos yutilish chiziqlari mavjud.

Amidlar (21-29) ning ¹H YaMR spektrlari tahlilida 3,4-dimetoksi-β-feniletilamin fragmentiga tegishli protonlar (10) va (11) birikmalaridagi singari δ 6.55-6.68 (1H, d, J = 8.0, H-6), 6.61 (1H, s, H-2), 6.71-6.73 (1H, d, J = 8.1, H-5) kimyoviy siljish soharlarida namoyon bo'ldi. Kislotali qoldiqlarga tegishli barcha protonlarning signallari ularning kimyoviy siljishlari va spin-spin o'zaro ta'sirlari bilan birga amid molekularidagi joylashuvlariga to'la mos keladi (2-jadval).

2-jadval

Ayrim amidlarning fizik-kimyoviy kattaliklari va kislota qoldig'i fragmentining ¹H YaMR ma'lumotlari


Kislota №	Amid №	Brutto formulasi	T. ^{suy.} , °C	Unum %	YaMR ¹ H (400 MGs, CDCl ₃ , δ, m.u., J/Gs):
12	21	C ₁₇ H ₁₈ NO ₃	90-92	56	6.06 (1H, keng s, NH), 7.14 (1H, t, J=7.8, H-5'), 7.62 (1H, dd, J=7.8, 1.7, H-4'), 7.80 (1H, dd, J=7.8, 1.8, H-6'), 8.02 (1H, d, J=1.4, H-2').
13	22	C ₁₇ H ₁₇ Cl ₂ NO ₃	147	51	6.24 (1H, keng s, NH); 7.27 (1H, dd, J=2.0: 8.3, H-5'); 7.37 (1H, d, J=2.0, H-3'); 7.56 (1H, d, J=8.3, H-6').
14	23	C ₁₇ H ₁₇ N ₃ O ₇	moysimon	49	8.23 (1H, d, J=8.0, H-6'), 8.53 (1H, keng s, NH), 8.71 (1H, d, J=8.0, 2.0, H-5'), 8.88 (1H, d, J=2.0, H-3').
15	24	C ₁₇ H ₁₆ I ₃ NO ₃	168-171	46	5.68 (1H, keng s, NH); 6.76 (1H, d, J=1.8, H-2); 6.77 (1H, dd, J=1.9; 8.0, H-6); 6.82 (1H, d, J=8.1, H-5); 7.41 (1H, t, J=2.0, H-4'); 8.18 (1H, d, J=2.0, H-6').
16	25	C ₁₈ H ₂₀ N ₂ O ₆	97-98	60	7.47 (1H, d, J=8.0, H-6'), 8.03 (2H, m, H-4',5').
18	27	C ₁₉ H ₂₁ NO ₃	121-122	81	6.20 (1H, keng s, NH); 6.36 (1H, d, J=15.6 H-8'); 7.27 (3H, m, H-3', 4', 5'); 7.40 (2H, m, H-2', 6'); 7.59 (1H, d, J=15.6, H-7').
19	28	C ₁₈ H ₂₁ NO ₄	105-106	75	4.91 va 4.93 (umumiy 1H, keng s, H-7); 6.21 va 6.31 (umumiy 1H, ikki keng s, NH); 7.30 (5H, m, H-2'', 3'', 4'', 5'', 6'').
20	29	C ₁₅ H ₁₇ NO ₄	moysimon	30	2.78 (2H, t, J=6.3; H-7), 3.60 (2H, kv, J=6.2, H-8).

Olingan natijalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, amidlarning hosil bo'lish unumi aromatik halqadagi o'rinbosarlarning tabiati, miqdori va joylashuviga bog'liq. Eng yuqori unum 2-nitro-3-metoksibenzoy (16, 60%) va bodom (19, 75%) kislotalari uchun olingan bo'lib, dolchin kislota uchun esa bu ko'rsatkich 80,4% ni tashkil etdi.


(12-17) -aromatik karbon kislotalar bilan bir qatorda DL (±) -bodom kislota (19) termik sharoitda amidlash reaksiyasi o'rganildi. Kondensatsiya reaksiyasi 178-180 °C da 4 soat davomida olib borildi. Natijada 75% unum bilan amid epimerlari aralashmasi olindi.

Bodom kislota amidining (28) ¹H YaMR spektrida OCH₃ guruhlar uchun δ 3.77 va 3.79 (umumiy 3H, singlet), OCH₃ guruhlar uchun: 3.81 va 3.83 (umumiy 3H, singlet); H-7 δ 4.91 va 4.93 (1H, keng singlet) va NH guruhlariga tegishli δ 6.21 va 6.31 (umumiy 1H, keng singlet) ikki xil signal to'plami kuzatildi. Bu signallar

1:1 nisbatda bo'lib, molekula ichidagi vodorod bog'lari hosil bo'lishi natijasida yuzaga kelish ehtimoli mavjud. Bunday bog'lanish NH-C=O bog'i atrofiga erkin aylanishni cheklaydi va natijada E- va Z-turdagi izomerlar hosil bo'ladi.



2-gidroksi-2-feniletilamidning (28) gidroksil guruhini sirka angidridi bilan atsilash yo'li bilan atsil mahsulotiga (31) aylantirildi.



2-((3,4-dimetoksifeniletil) amin) -2-okso-1-feniletilatsetat (31) ning ^1H YaMR spektrida OH-guruh protoniga mos signal mavjud emas, uning o'rniga atsetil guruhiga tegishli protonlarning singlet signali δ 2.10 m.u. (3H, s, C(O)CH₃) mavjud.

Bishler-Napiralskiy reaksiyasi bo'yicha digidroizoxinolinlarning olinishi. Olingan amidlarni (5-7), (10), (11), (21-29) asosiy birikmalar sifatida biologik faolligi jihatidan alohida qiziqish uyg'otgan digidroizoxinolinlarni sintezi uchun Bishler-Napiralskiy reaksiyasidan foydalandik.


N-(3,4-dimetoksifeniletil)-2-gidroksipropanamidning (7) ichki sikllanish reaksiyasi Bishler-Napiralskiy usuli bo'yicha suv hammomida qizdirish orqali amalga oshirildi. Bunda sikllovchi agent sifatida POCl₃ qo'llanildi. Reaksiya erituvchida ya'ni benzol va POCl₃ da 4 soat hamda 2-usul erituvchisiz POCl₃ da bunda erituvchi ham reagent ham fosforoksi xloriddan foydalanib 6 soat qizdirish bilan olib borildi.

Olingan 3,4-digidroizoxinolin tozalanmasdan ("one-pot" usulida) metanolda NaBH₄ yordamida qaytarildi. Natijada, 59% unum bilan 1-(1-xloretil)-6,7-dimetoksi-1,2,3,4-tetragidroizoxinolin (32) hosil qilindi.




Rentgen tuzilish tahlili (RTT) shuni ko'rsatadiki, sut kislotasi qoldig'ining gidroksil guruhi amid (32) ichki halqa hosil bo'lish jarayonida Cl atomiga nukleofil o'rin almashinishga uchraydi. Shu tarzda, reaksiya natijasida 1-(1-xloretil)-6,7-dimetoksi-1,2,3,4-tetragidroizoxinolin hosil bo'ladi. U RTT ma'lumotlariga ko'ra

P21/c monoklin fazoviy guruhida kristallanadi (1-Rasm). Asimmetrik kristall birlik IR, 11R konfiguratsiyali xiral uglerod atomlariga ega bo'lgan bitta mustaqil molekulani o'z ichiga oladi. Shu sababli, kristall RR va SS enantiomerlaridan tashkil topgan. C4a-C8a aromatik halqasi biroz buralgan bo'lib; tegishli atomlar halqaning o'rtacha tekisligidan og'ishi 0,0271 Å ni tashkil etadi. Aromatik halqa va C6, O1, C9 hamda C7, O2, C10 atomlari bilan aniqlangan tekisliklar mos ravishda 13,4° va 5,2° ni tashkil qiladi. C4a-C4 va C8a-C1 bog'larini biroz notekis, C1 va C4 ning aromatik halqaning o'rta tekisligidan og'ishi mos ravishda -0,219 va 0,146 Å ga teng. Tetragidroizoxinolinning geterotsiklik halqasi yarim kreslo shakliga ega.




1-Rasm. 1-(1-xloretil) -6,7-dimetoksi-1,2,3,4-tetragidroizoxinolin kristalidagi vodorod bog'i.

2-(6,7-dimetoksi-3,4-digidroizoxinolin-1-il)-8,9-dimetoksi-5,6-digidro pirrolo[2,1-a]izoxinolin sintezi. Murakkab tuzilishga ega izoxinolin alkaloidlariga bo'lgan qiziqishning ortishi yangi moddalarni ajratib olish va ularning analgetik, yallig'lanishga, tutqanoqqa, saratonga, bezgakka qarshi hamda sitotoksik faolliklari haqidagi ma'lumotlarning to'planishi bilan bog'liq. Xususan, Bishler-Napiralskiy reaksiyasi orqali itakon kislotasi (10) monoamididan ikkita izoxinolin fragmentini o'z ichiga olgan izoxinolin qatoridagi bimolekulyar hosilaning sintezi katta qiziqish uyg'otmoqda.



Itakon kislotasining siklik amidi (10) ning POCl₃ bilan reaksiyasi natijasida digidroizoxinolin (33) hosil bo'ladi. (33) ning ¹H YaMR-spektrida H-β' signali pastroq maydonga siljigan (4,22, triplet J = 6,6, H-3'), NH guruhidan signal yo'qolgan, aromatik protonlar 5, 5' va 8, 8', shuningdek, H-9,11 singletlar shaklida namoyon bo'ladi, bu esa 2-(6,7-dimetoksi-3,4-digidroizoxinolin-1-il)-8,9-dimetoksi-5,6-digidropirrolo[2,1-a]izoxinolin hosil bo'lganini tasdiqlaydi.


(33) –brikmaning hosil bo'lish reaksiya mexanizmi adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga asosan taklif etilmoqda.



Shunga ko'ra, diamidli birikma (10) ning molekula ichki tsikllanishi natijasida tsiklik amid — oksopirrolidinkarboksiamid (11) hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan oksopirrolidinkarboksiamid (11) molekulasidagi amid guruhi kislorodning juftlanmagan elektron juftlari POCl₃ molekulasidagi fosfor atomi bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida oraliq birikmalar (A) va (B) hosil bo'ladi. Bunda azot atomi tashqi qobig'ida juftlanmagan elektronlar hisobiga ikki bog'li sistemaning shakllanishi yuz beradi. Keyingi bosqichda oraliq birikma (B) dan vodorod kationi (H⁺) ning HCl shaklida ajralib chiqishi orqali oraliq birikma (C) hosil bo'ladi. So'ngra oksixlorid fosforning chiqib ketishi natijasida birikma (C) dan birikma (D) olinadi. Ushbu birikma esa birikma (E) ning sinteziga olib keladi. Oraliq birikma (E) ning sikllanishi orqali birikma (F) hosil bo'ladi. Reaksiyaning yakuniy bosqichida esa F mahsuloti oksidlanishi hisobiga birikma (33) olinadi. Bu jarayon ACS Omeda, 7, 37050–37060 (2022) maqolasida keltirilgan mexanizmga o'xshash tarzda sodir bo'ladi.

Digidroizoxinolinlar sintezining maqbul sharoitlarini tanlash. Izoxinolin hosilalariga bo'lgan talab ularni sintez qilishning iqtisodiy samarali usullarini ishlab chiqishni taqazo qilmoqda. Buning uchun biz 3 ta usuldan foydalandik.

Bir bosqichli sintezda dastlabki moddalar sifatida amin (1) va bir qator kislotalar (12-15), (19) qoʻllanildi (B usuli). Turli erituvchilarni sinab koʻrish natijasida maʼlum boʻldiki, maqsadli digidroidiozoxinolinlar (34-38) faqat ksilolda 4-6 soat davomida qaynatilgandagina 63-70% unum bilan hosil boʻlishi aniqlandi (benzolda tegishli amidlar paydo boʻlsa, toluolda esa moddalarning ajratish qiyin boʻlgan aralashmasi hosil boʻladi).



Bir bosqichli sintezda boshlangʻich modda sifatida amin (1) va bir qator kislotalar (12-15), (19) ishlatildi (B usuli). Turli erituvchilardan foydalanish shuni koʻrsatdiki, maqsadli digidroidiozoxinolinlar (34-38) faqat ksilolda 4-6 soat davomida qaynash sharoitida 63-70% hosil bilan olinadi. Boshqa erituvchilarda esa, xususan, benzolda mos amidlar, toluolda esa ajratish qiyin boʻlgan aralashma hosil boʻladi. Ushbu usul oraliq amidlarni ajratib olish bosqichsiz maqsadli digidroidiozoxinolinlarni olish imkonini beradi.

Shuningdek benzol va POCl_3 dan foydalangan holda, (21-24) amidlardan Bishler-Napiralskiy reaksiyasi orqali ham digidroidiozoxinolinlar (34-38) olinishi mumkin (C usuli).

3-jadvalda keltirilgan reaksiya unumlari bir bosqichli (B usuli) ikki bosqichli (C usuli) ga nisbatan ustun ekanligini yaqqol koʻrsatadi.

Anʼanaviy digidroidiozoxinolinlar sintez usullari bilan solishtirganda, mikrotoʻlqinli nurlanish yordamida olib boriladigan sintez reaksiyaning qisqa davomiyligi, mahsulotlarni oson ajratish, yuqori selektivlik kabi afzalliklarga ega.

3-jadval

Ayrim digidroidiozoxinolinlarning B (ksilol, 140°C) usulida va C (amidlarni ajratib olish bosqichi) usulida hosil boʻlish unumlari

Birikma	B-usul. Unum, %	C-usul. Unum, % (umumiy)*
34	68	60
35	65	60
36	63	39
37	70	57


*digidroidiozoxinolinlarning unumi dastlabki amin (1) ga nisbatan hisoblandi.

Bishler-Napiralskiy reaksiyasida ushbu usulning samaradorligi amin (1) va kislota (12) misolida o'rganildi. 950-1050 Vt quvvatli maishiy mikroto'lqinli pechda toluol va POCl_3 muhitidagi amin va kislota aralashmasini mikroto'lqinli qizdirish amid va digidroizoxinolin aralashmasining hosil bo'lishiga olib keldi. Quvvatni 1050 Vt gacha ko'tarish va reaksiya vaqtini 20-30 daqiqagacha uzaytirish natijasida maqsadli mahsulot bo'lgan digidroizoxinolin hosil bo'lishi kuzatildi.


Moddalarning tuzilishi ^1H va ^{13}C YaMR-spektrlari asosida isbotlangan. (34-37) sikllash mahsulotlarining ^1H YaMR-spektrida aromatik halqaning H-6 holatidagi proton va amin (1) fragmentining NH-guruhiga mos keladigan signallar yo'q. H-5 va H-8 protonlari esa δ 6.64 - 7.43 va 6.23 - 6.87 m.u. oralig'ida singletlar ko'rinishida rezonanslashgan hamda kislota qoldig'i protonlarining tegishli signallari ham mavjud. Bu esa sikllash jarayoni va digidroizoxinolin hosil bo'lganini tasdiqlaydi.

Tarkibida O-atsetil guruhi bo'lgan amid (31) asosida tetragidroizoxinolin olish reaksiyasida O-atsetil guruhini saqlab qolish imkoni bo'linadi.

Toluolning POCl_3 bilan va NaBH_4 ning keyingi qaytarilishida ikki mahsulot aralashmasi hosil bo'ladi: 70% unum bilan (R) -2-xlor-N- (3,4-dimetoksifenetil) -2-fenilatsetamid (40) va 29% unum bilan. 1-((R) -xlor (fenil)) metil -6,7-dimetoksi-1,2,3,4-tetragidroizoxinolin (41).



(39) va (42) tetragidroizoxinolinlar gomoveratrilamin (1) va (17) hamda (19) kislotalar asosida ksilol muhitda qizdirish va NaBH_4 bilan qaytarish orqali 70% unum bilan mahsulotlar olindi.



N- (3,4-dimetoksifenetil) sinnamamid asosida sintez qilingan digidro- va 6,7-dimetoksi-1-stiril-1,2,3,4-tetragidroizoxinolinning tuzilishi ^1H YaMR-spektroskopiya ma'lumotlari bilan to'liq tasdiqlandi.

Izoxinolin hosilalarining sitotoksik faolligi. Olingan birikmalarning ayrim vakillarining farmakologik faolligi O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi institutining genetika laboratoriyasida (prof. Sh.S. Azimova boshchiligidagi ilmiy guruh) o'rganildi.

Itakon kislotadan sintez qilingan izoxinolin (33) yaqqol sitotoksik ta'sir ko'rsatdi: sut bezi adenokarsinomasini HBL-100 hujayralari uchun uning IC_{50} 13,1

mkM (12,5 mkM), bachadon bo'yni karsinomasi HeLa hujayralari uchun 24,9 mkM (38,3 mkM), hiqildoq adenokarsinomasi uchun 27,1 mkM (68,6 mkM) ni tashkil etdi. T-limfoblast leykozning CCRF-CEM liniyasi ushbu hosila ta'siriga sezgir emas edi - IC₅₀ qiymati 95,9 mkM ni tashkil etdi. Taqqoslash uchun sisplatin ishlatilgan. (34-37) birikmalari ushbu hujayralarga nisbatan sitotoksik faolligni namoyon qilmadi.

4-jadval

Saraton hujayralari liniyalaridagi birikmalarning sitotoksikligi (100 mkM) (hujayra o'sishini to'xtatish, %)

Birikma	CCRF-SEM	HeLa	HBL-100	HEp-2
8	18.5 ± 1.1	12.7 ± 0.5	5.0 ± 0.7	3.2 ± 0.3
11	51.6 ± 1.6 (IC ₅₀ =95.9)**	94.9 ± 3.2 (IC ₅₀ =24.9)**	98.9 ± 2.8 (IC ₅₀ =13.1)**	97.3 ± 1.7 (IC ₅₀ =27.1)**
20	7.2 ± 0.6	0.0 ± 0.0 (8%)*	14.9 ± 0.9	7.0 ± 0.6
29	14.1 ± 0.5	4.4 ± 0.4	12.7 ± 1.1	0.4 ± 0.0
30	9.2 ± 0.2	10.8 ± 1.1	18.8 ± 0.5	2.7 ± 0.0
32	14.2 ± 0.3	12.5 ± 1.4	23.7 ± 1.4	12.0 ± 1.2
33	13.6 ± 0.8	0.0 ± 0.0 (3%)*	18.8 ± 1.1	3.0 ± 0.0
34	22.4 ± 1.5	0.0 ± 0.0 (15%)*	0.0 ± 0.0 (2%)*	0.0 ± 0.0 (7%)*
35	18.0 ± 0.8	0.0 ± 0.0 (9%)*	0.0 ± 0.0 (11%)*	0.0 ± 0.0 (8%)*
38	12.6 ± 0.9	0.0 ± 0.0 (18%)*	0.0 ± 0.0 (3%)*	11.9 ± 1.1
Sisplatin	51.6 ± 1.9 (IC ₅₀ =96.7 M)**	92.4 ± 2.7 (IC ₅₀ =38,3 µM)**	100.0 ± 0.0 (IC ₅₀ =12.3 µM)**	45.7 ± 2.1 (IC ₅₀ =68,6 µM)**

*hujayra proliferatsiyasining foizi qavs ichida ko'rsatilgan

** IC₅₀ qiymati qavs ichida ko'rsatilgan

5-jadval

Sog'lom hujayra liniyalarida (100 mkM) birikma 6 ning sitotoksikligi

Birikma, 100 µM	Hujayra o'sishini to'xtatish, %, %		
	Vero B	Fibroblastlar	Gepatotsidlar
Birikma 33	51.6 ± 1.4 (IC ₅₀ =95.9)**	94.3 ± 2.3 (IC ₅₀ =12.6)**	50.0 ± 1.3 (IC ₅₀ =100.0)**
Sisplatin	78.6 ± 2.1 (IC ₅₀ =29,9 µM)**	43.4 ± 0.8 (IC ₅₀ >100 µM)**	32.6 ± 1.2 (IC ₅₀ >100 µM)**

** IC₅₀ qiymati qavs ichida ko'rsatilgan

Dissertatsiyaning “Tajribaviy qism” deb nomlangan uchinchi bobida qo‘llanilgan reagentlar tavsifi, tadqiqotlarni o‘tkazish va kimyoviy o‘zgarishlar metodikasi, shuningdek sintez qilingan birikmalarning fizik-kimyoviy va spektral tavsiflari keltirilgan.

XULOSALAR

1. Ilk bor aromatik to‘yingan, to‘yinmagan, alifatik to‘yingan, to‘yinmagan, gidroksi- va ikki asosli to‘yinmagan karbon kislotalarning gomoveratrilamin bilan Bishler-Napiralskiy reaksiyasi qiyosiy o‘rganildi va uning tuzilishi va unumiga ta’sir etuvchi asosiy omillar (erituvchi, harorat, usul) aniqlandi. 3,4-digidroizoxinolin va 1- (1-xloretil) -6,7-dimetoksi-1,2,3,4-tetragidroizoxinolinning yangi hosilalarini sintez qilishning o‘ziga xos yo‘llari va sharoitlari hamda oraliq va yakuniy mahsulotlarning fizik xossalari izohlangan.

2. Ilk bor gomoveratrilamin va aromatik karbon kislotalar asosida 1-(fenil)-6,7-dimetoksi-3,4-digidroizoxinolin hosilalarining samarali bir bosqichli sintez usullari amalga oshirildi; ularning sitotoksik faolligi aniqlandi.

3. N,1-bis (3,4-dimetoksi-fenilet) -2-oksopirrolidin-3-karboksiamid asosida yangi digidropirroloizoxinolin (2- (6,7-dimetoksi-3,4-digidroizoxinolin-1-il) - (8,9-dimetoksi-5,6-digidro-pirrolo[2,1-a]izoxinolin) hosilasi olingan va uning sitotoksik faolligi in vitro (IC50 sut bezi adenokarsinomasi HBL-100 hujayralari uchun - 13,1 mkM, bachadon bo‘yni karsinomasi HeLa hujayralari uchun - 24,9 mkM, hiqildoq adenokarsinomasi uchun - 27,1 mkM) aniqlangan.

4. Tarkibida N-C (O) -CH (OH yoki OAc) - fragmenti bo‘lgan amidlarda fosfor oksoxlorid bilan reaksiyalarda gidroksil guruhi xlor atomiga oson almashinishi aniqlangan.

5. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida 39 ta modda sintez qilindi; 22 ta yangi birikmalar olindi va ularning kimyoviy tuzilishi IQ, YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya va RTT usullari yordamida tasdiqlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2020.К.82.02. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

САМАРКАНДКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

УРУНБАЕВА ЗИРОАТ ЭРКИНОВНА

**СИНТЕЗ РЯДА ЗАМЕЩЕННЫХ 3,4-ДИГИДРО- И 1,2,3,4-
ТЕТРАГИДРОИЗОХИНОЛИНОВ**

02.00.03-Органическая химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Чирчик-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/K484

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.csri.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Виноградова Валентина Ивановна
кандидат химических наук, с.н.с.

Официальные оппоненты:

Тургунов Эрхон
доктор химических наук, профессор
Журакулов Щерзод Нияткабулович
доктор химических наук, с.н.с.

Ведущая организация:

Ташкентский фармацевтический институт

Защита диссертации состоится **18** **08** 2025 г в **11⁰⁰** часов на заседании Научного совета DSc.03/30.09.2020.K.82.02 по присуждению ученых степеней при Чирчикском государственном педагогическом университете. (Адрес: 111720, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Амира Темура 104, Тел.: (+998) 70-716-68-05, факс: (0370) 716-68-11, e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета. Адрес: 111720, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Амира Темура 104, Тел.: (+998) 70-716-68-05, факс: (0370) 716-68-11, e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz (зарегистрирована за № **381**).

Автореферат диссертации разослан « **30** » **07** 2025 года.
(реестр протокол рассылки № **28** от « **30** » **07** 2025 года).



О. Э. Зиядуллаев
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.х.н., профессор

Г. К. Отамухамедова
Ученый секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней, д.х.н.

А. Г. Махсумов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению учёных
степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ аннотация диссертации доктора философии (PhD)

В настоящее время одной из наиболее актуальных и приоритетных задач современной органической и медицинской химии в мире является растущий интерес к новым эффективным лекарственным препаратам с многогранным действием. Разработка новых лекарственных препаратов на основе изохинолиновых алкалоидов и их синтетических аналогов среди природных соединений с каждым годом увеличивается, что требует создания нового поколения органических веществ на основе тонкого органического синтеза и широкого изучения их применения. В частности, актуальным является поиск новых методов синтеза высокоактивных производных изохинолина, изучение их физико-химических свойств и выявление целевых областей применения. В частности, на основе изохинолиновых алкалоидов и их производных разработан ряд препаратов для лечения сердечно-сосудистых заболеваний, злокачественных опухолей, инфекционных и вирусных заболеваний, и их использование в качестве высококачественных лекарственных средств в фармацевтической промышленности имеет большое значение.

В мире ведутся обширные исследования по разработке методов синтеза новых производных изохинолина с использованием современных методов органической химии, изучению их физико-химической, фармакологической и биологической активности, изучению их антимикробных, антиоксидантных и других фармакологических свойств, определению их состава и структуры, разработке их видовых и квантово-химических характеристик, технических условий и требований. В связи с этим особое внимание уделяется разработке методов синтеза и технологий получения ряда замещенных 3,4-дигидро- и 1,2,3,4-тетрагидроизохинолинов производных изохинолина, изучению их физико-химических и механических свойств, химических превращений и активности, а также изучению их новых поколений антимикробных, антиоксидантных, цитотоксических и других фармакологических свойств.

